

**FINLANDIYA TAJRIBASIGA ASOSLANGAN HOLDA
O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI**

Abdusalamova Munisa Sobir qizi

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimini yangicha usullar bilan rivojlantirish borasida katta islohatlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, ta’lim tizimi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallagan Finlandiya davlatining tajribalariga asoslangan holda yurtimizda maktablar uchun o‘quv dasturlari tuzish va darsliklar chiqarilmoqda. Ushbu maqolada Finlandiya ta’limining rivojlanishiga asoslangan holda O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish va isloh etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion metodlar, xalqaro tajriba, pedagogika, ta’lim islohotlari.

Abstract: In recent years, major reforms have been carried out to develop the education system of New Uzbekistan in new ways. In particular, based on the experience of Finland, which occupies a leading position in the world in terms of education system, curricula for schools are being developed and textbooks are being published in our country. This article considers ways to develop and reform the education system of Uzbekistan based on the development of Finnish education.

Keywords: education system, innovative methods, international experience, pedagogy, educational reforms.

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining nafaqat ta’limiy balki iqtisodiy hamda siyosiy sohalarida ham keskin o‘zgarishlar va yangiliklar sodir bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta bunday o‘zgarishlar zamirida kuchli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan talabchan kadrlar xizmatining o‘rnini alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz maqomini bundanda yuqori cho‘qqilarga olib chiqish uchun jahon talablariga to‘laqonli mos keladigan va raqobatbardosh ta’lim tizimini tashkil etish, shuningdek har tomonlama yetuk mutaxassislarini yetishtirish muhim hisoblanadi.

Ta’lim tizimi mamlakat taraqqiyotini va xalq ning intellektual salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Hozirgi zamonaviy dunyoda rivojlangan

davlatlarning ta’lim siyosati o‘ziga xos ilg‘or metodikalar va noodatiy yondashuvlar bilan ajralib turadi.

Istalgan mamlakat tajribasini o‘zlashtirishdan oldin uning davlat kelajagi uchun ta’sirini har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatning taqdirini belgilab beradi. Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlarning mamlakatlarning ta’lim tajribalari o‘rganilib, shunga tayangan holda O‘zbekiston ta’limini yangilash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Har bir millatning o‘ziga xos urf-odatlari hamda madaniyati mavjud. Albatta bir mamlakat ta’lim strategiyasini boshqasiga to‘liq tadbiq etib bo‘lmaydi. Shu sababli, o‘rganiladigan mamlakatning ta’lim siyosatini tahlil qilish orqali uning tarixi, madaniyatini va qadriyatlarini chuqur o‘rganish lozim.

Barchamizga ayonki, so‘nggi yillarda Finlandiya ta’lim tizimi xalqaro reytinglarda eng yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘ngi yillarda islohatlar amalga oshirilmoqda. Biroq xalqaro tajribalarga asoslangan holda, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish muhim jarayondir.

Finlandiya ta’lim tizimining asosiy xususiyatlari

2020-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonda maktab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan Finlandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish vazifasi yuklatilgan edi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlandiyaning misol qilib ko‘rsatilganligining boisi shundaki, ushbu mamlakat ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o‘z muvaffaqiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Finlandiya davlatining muvaffaqiyatini bitta omil bilan izohlab bo‘lmaydi, chunki undagi mavjud barcha omillar bir-biri bilan tarmoq hosil qilgan holda birikkan deyish mumkin.

Finlandiya ta’lim tizimi muvaffaqiyattining asosiy omillari quyidagilardir:

1. Ta’limning asosiy tamoyillari

Finlandiya ta’lim tizimi o‘quvchilarga shaxs sifatida erkin fikrlash va ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. Finlandiya tizimi bolalarni bilim va salomatlik darajasiga qarab ajratmaydi. Bir sinfda oddiy o‘quvchilar bilan bиргаликда aravachadagi bolalar ham yonma-yon o‘qiydilar. O‘quvchilar biri biridan ustun deb qaralmaydi. O‘qituvchi ularning hammasi alohida iqtidorga ega ekanligini ta’kidlaydi. Maktablarda ortiqcha nazorat va bosim yo‘q. O‘quvchilar bilim olish jarayonida o‘z qiziqishlariga tayanadi. Ta’limda reytinglar birinchi darajali emas

va ortiqcha test sinovlari o‘tkazilmaydi, balki amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limga e’tibor qaratiladi.

2.Bepul va teng imkoniyatlar

Finlandiyada ta’lim 100% bepul bo‘lib, barcha o‘quvchilar bir xil imkoniyatga ega. Maktablarda o‘quvchilarga o‘quv qurollari bilan birgalikda tushlik ham bepul taqdim etiladi. Barcha davlat maktablarining mavqeyi teng deb qaraladi. Bolaning mакtabni tanlashiga xojat yo‘q, chunki alohida rivojlantiruvchi xususiy maktablar mavjud emas. Shu sababli, maktablarning teng moliyaviy va ta’lim olish imkoniyatlarini hisobga olib, o‘quvchining yashash joyiga eng yaqinlariga ustunlik beriladi. Tanlangan kasblar uchun ixtisoslashgan muayyan mavzuni ongли o‘rganadiganlar uchun maxsus maktablar mavjud.

3.O‘qituvchilar faoliyati

Finlandiyada o‘qituvchilik kasbi eng nufuzli kasblardan biri sanaladi. Barcha maktabdagи o‘qituvchilar magistratura darajasiga ega bo‘lishlari shart hisoblanadi. O‘quvchilarga uy vazifalari berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda qo‘srimcha shug‘ullanishlari shart emas va o‘qituvchilarning o‘quvchilarni hayotga to‘liq tayyorlashlariga ishonishadi. 2017-yildan buyon aksaryat maktablar dars vaqtida “ruchkadan voz kechishgan”, dars jarayonida to‘liq kompyuter va planshetlardan foydalilanadi. O‘qituvchilarning salohiyati eng muhim omil va bu boshqa ko‘plab omillar bilan, masalan, o‘qituvchilik kasbining jamiyatdagi obro‘sи va o‘qituvchilarning mehnat faoliyati bilan bog‘liq.

4. Innovatsion texnologiyalar a metodlar

Darslar jamoaviy loyihalar, fikrlashga undovchi muammoli ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar asosida olib boriladi. Shuningdek, raqamli texnoloviyalar ham ta’lim tizimining asosiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimining hozirgi holati

O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, maktab ta’limida yangi darsliklar ishlab chiqildi, har bir sinf xonalari zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmoqda. Oliy ta’lim sohasida esa grant va kontrakt tizimi takomillashtirilmoqda hamda ko‘plab yangi xalqaro universitetlar ochilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etilmoqda. Shunday bo‘lsada, bizda hamon ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar mavjud. Misol uchun, o‘quv dasturlari haligacha ortiqcha yuklama bilan to‘ldirilgan, nazariy ta’lim ustun bo‘lib, amaliy faoliyatga katta e’tibor qaratilmaydi, o‘qituvchilar malakasi va dars berish metodlari ilgarigidek eski variantda. Bundan tashqari, o‘quvchilar ijodiy fikrlash imkoniyatidan to‘liq

foydalinishmaydi, tayyor berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga majbur bo'lmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish bosqichlari

1.O'qituvchilarning malakasini oshirish

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun avvalo pedagoglarning tayyorlik darajasini oshirish kerak. O'qituvchilarni Finlandiya modeliga mos ravishda tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Bunda darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalinish uchun maxsus treninglar tashkil etilishi lozim.

2.Ta'lim dasturlarini yangilash

O'quv yuklamalariga qo'yiladigan talabni optimallashtirish zarur. Faqat nazariya bilan cheklanmasdan, balki amaliy mashg'ulotlarga ham katta urg'u berish kerak. Amaliy va labaratoriya mashg'ulotlarini ko'paytirish, bollarni mustaqil izlanishlariga, yangiliklar yaratishlariga imkon berish ta'limning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi shuphasiz. Interaktiv usullarni joriy qilish va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning bu qobiliyatlarini albatta rivojlantirish muhim hisoblanadi.

3.Ta'lim siyosatini isloh qilish

Rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini chuqur o'rganish va mamlakatimiz, millatimiz uchun aynan mos jihatlarni ajrata bilish hamda ularni ta'lim tizimimizga joriy etish orqali islohatlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birgalikda, barcha xususiy va davlat ta'lim muassasalarining hamkorligini yo'lga qo'yish kerak.

Xulosa

Ta'lim tizimi har qanday jamiyatning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omildir. nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va shaxsiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga ham yo'naltirilishi lozim. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalar tahlil qilindi va ular asosida O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishga doir tavsiyalar berildi. Finlandiya mamlakatining ta'lim tizimi mazmuni yoritilgan "Oq nilufarlar yurtida" nomli asar muallifi Grigory Petrov ta'lim va ma'rifat jamiyat rivojining asosiy kuchi ekanini ta'kidlaydi. Bu esa jamiyat rivojining bevosita sifatli ta'limga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Finlandiya ta'limining muvaffaqiyat kaliti o'qituvchilarga beriladigan yuqori erkinlik va ishonchdir. O'qituvchilarga faqatgina bilim yetkazuvchi emas, balki yosh avlodning tafakkurini shakllantiruvchi murrabbiy sifatida qarash, o'quvchilarning individualligini hurmat qilish imkonini beradi. Shuningdek, ta'limga ajratilgan resurslardan samarali foydalinish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi garovidir. O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanish strategiyalarini

belgilashda ushbu tajribalarni chuqur o‘rganish va milliy an’analarimiz bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash juda muhimdir. Bunday say- harakatlarni amalyotga tatbiq etish mamlakatimizda ta’lim samaradorligini oshirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
2. OECD. (2018). Education Policy Outlook: Finland. OECD Publishing.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). Ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida [Qaror, 2021-yil 29-aprel]. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha bo‘lgan ta’lim strategiyasi. Toshkent.
5. Niyozmetov, O. (2020). O‘zbekistonda ta’lim islohotlari va xalqaro tajriba. Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.
6. Gazeta.uz. (2022, 8-noyabr). Finlandiya ta’lim tizimi: samarali yondashuvlar va darsliklarsiz o‘qitish.<https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/08/finland-education/>
7. Hidoya.uz. (n.d.). Finlandiya ta’lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari.<https://hidoya.uz/uz/news/769>
8. OECD. (2023). PISA 2022 Results: Finland and Uzbekistan. OECD Publishing.
9. Rajabova, K. F. (2023). O‘zbekiston ta’limining Finlyandiya ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023(2), 244-250.<https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2393/1825>
10. CyberLeninka. (2020). O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar.